



Received: April 12, 2026
Accepted: May 23, 2026
Available online: May 25, 2026

Maxfuza Artikova

Mustaqil izlanuvchi (DSc)
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

ISPAN GAZETA TILINING JANR XUSUSIYATLARI

ANNOTATSIYA

Jahon mediamakonida axborot ayirboshlash jarayonlarining jadallashuvi OAVlarini jamiyat hayotidagi eng ta'sirchan ijtimoiy institutlardan biriga aylantirdi. Gazeta matnlari esa mediakommunikatsiya tizimida axborot berish, baholash va ta'sir ko'rsatish funksiyalarini bir vaqtning o'zida bajaradigan janr maydoni sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois ushbu tadqiqot ishini bajarishdan ko'zlangan asosiy maqsad dunyo mediamakonida o'zgarishga yuz tutib borayotgan janrlar chegaralarini o'rganish hisoblanadi.

Yuqoridagi maqsadni amalga oshirish uchun masalani ispan matbuoti misolida o'rganish vazifasi qo'yilgan, zero, mazkur til dunyodagi eng keng tarqalgan tillardan biri bo'lib, u nafaqat Ispaniya, balki Lotin Amerikasi davlatlari, AQSH va boshqa mintaqalarda ham ommaviy kommunikatsiyaning asosiy vositasi sifatida qo'llaniladi. Maqola oldiga qo'ygan vazifalardan yana biri ispan gazeta janrlarining shakllanishi hamda uning funksional yo'nalishini tadqiq qilishdan iboratdir.

Ushbu maqolada ispan tilidagi OAVlari janrlari yuzasidan izlanishlar olib borgan olimlar R.Y. Mesa, R.Salaverriya, T.Sabes, R.Sanches, B.Rodriguez, R.Penyaranda va boshqalar tadqiqotlari asosida gazetaning janriy xususiyatlari tavsifiy, sintez usullari yordamida o'rganiladi.

Maqolada ispan davriy matbuotida shakllangan janr tizimi tarixiy, madaniy va ijtimoiy omillar ta'sirida rivojlanganligi tarixiy usulda, ispan davriy nashrlari janr tasnifi janrlarning funksional-uslubiy vazifalari, mavzu doirasi va kommunikatsion

Makhfuza Artikova

Independent Researcher (DSc)
Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: martikova@gmail.com
ORCID iD: 0009-0007-1030-3899

GENRE CHARACTERISTICS OF THE LANGUAGE OF SPANISH NEWSPAPERS

ABSTRACT

The rapid expansion of information exchange in the global media space has transformed the media into one of the most influential social institutions. Within this context, newspaper texts have acquired particular significance as a genre domain that simultaneously performs informational, evaluative, and persuasive functions. Therefore, the primary objective of this study is to investigate the transformation of newspaper genres and the changing boundaries between them in the contemporary media environment.

The Spanish press was selected as the object of analysis because Spanish is one of the most widely spoken languages in the world and serves as a major means of mass communication not only in Spain but also in Latin America, the United States, and other regions. The study also explores the formation and functional characteristics of Spanish newspaper genres.

Drawing on the works of scholars such as R.Y. Mesa, R.Salaverriá, T.Savel, R.Sánchez, B.Rodríguez, and R.Peñaranda, the research employs descriptive and synthetic methods to examine the genre features of Spanish journalism.

Using historical, classificatory, comparative, analytical, and linguapragmatic approaches, the article demonstrates that the genre system of the Spanish press has evolved under the influence of historical, cultural, and social factors. The findings indicate that contemporary Spanish newspaper genres are increasingly characterized by hybridity, genre synthesis, and the gradual blurring of boundaries between information,

maqsadlariga ko'ra muayyan umumiylik mavjud ekanligini tasniflash hamda qiyosiy usullar bilan aniqlanadi. Shuningdek, mazkur maqoladan olingan xulosalar asosida Ispaniya matbuotidagi janr xususiyatlari gibridlikda, janrlar sintezida, axborot, tahlil va publitsistika o'rtasidagi chegaralarning yo'qolishida namoyon bo'lishi tahlil usuli yordamida aks ettiriladi. Biroq ispan matbuotida gazeta matnining janrlar bo'yicha tashkil etilishi faqat tuzilmaviy va uslubi xususiyatlar bilan chegaralanib qolmaydi. Uning kommunikativ maqsadni amalga oshirishi, bahoni shakllantirishi va adresatga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan pragmatik mexanizmlarni o'z ichiga olishiga doir masalalar lingvopragmatik yondashuv asosida o'rganiladi.

Natijada so'nggi ellik yil mobaynida ispan matbuoti nashrlarida yuz bergan o'zgarishlar, janr qorishuvi jarayoni asoslanadi hamda ispan matbuoti uchun xos bo'lgan an'anaviy janrlar (yangilik, hisobot, intervyu, tahliliy maqola, sharh) raqamli davrda yangi ko'rinishlar, interfaollik, multimediasiyalik bilan boyib bormoqda, degan xulosaga kelinadi.

Kalit so'zlar: mediamakon, matbuot, gazeta, janr, axborot, tahliliy, fikr, yangilik, intervyu, reportaj, gibrid, multimedia.

KIRISH

Axborot har qanday qurolidan kuchliroq ta'sirga ega bo'lib borayotgan bugungi davrda uzatilayotgan axborotni aniq va to'laqonli bo'lishini ta'minlash, axborot orqali nafaqat voqea-hodisalar haqida aniq dalillarni, raqamlarni uzatish, balki o'quvchi, tinglovchi hamda tomoshabinning dunyoqarashini shakllantirish ham jurnalistlar zimmasidadir. Ya'ni, ommaviy axborot vositalari axborot tarqatishdan tashqari kommunikatsiya vositasi sifatida targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni yoritish orqali auditoriyada ijtimoiy fikrni shakllantirish hamda aholining huquq va erkliklarini ta'minlashni maqsad qiladi. Shu sababdan ham ommaviy axborot vositalari – OAVlari zamonaviy jamiyatda muhim rol o'ynaydi, u jamoatchilik fikrini shakllantiradi va hayotning turli jabhalari to'g'risida ma'lumot beradi.

Ispaniya OAV ham bundan mustasno emas, u ispan madaniyati va jamiyatining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi va siyosat, sport, ko'ngilochar va madaniyat haqida ma'lumot beruvchi keng mavzularni qamrab oladi. Ispan OAVlari qizg'in siyosatdan tortib millionlar o'yini futbolgacha turli xil auditoriyalarning manfaatlarini qondirish uchun turfa formatlar va tahliliy yondashuvni taklif etadi.

Shuningdek, Ispaniyada OAVlari "to'rtinchi hokimiyat" rolini o'ynaydi va hukumat hamda jamiyatga ta'sir o'tkazishga intiladi. Xususan, OAVlaridagi roli tufayli siyosiy kampaniyalar katta ta'sirga ega. Matbuot fuqarolarning dunyo va siyosiy

analysis, and journalism. Furthermore, the organization of newspaper texts is determined not only by structural and stylistic features but also by communicative goals, evaluative functions, and pragmatic mechanisms designed to influence readers.

The study concludes that, over the past fifty years, traditional genres such as news, reports, interviews, analytical articles, and reviews have undergone significant transformation and have been enriched by new forms, interactivity, and multimedia elements associated with the digital age.

Key words: media space, press, newspaper, genre, informational, analytical, opinion, news, interview, reportage, hybrid, multimedia.

voqealar, shu jumladan Ispaniyaning diktaturadan demokratiyaga o'tishi haqidagi tasavvurlarini ham shakllantirgan hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda Ispaniyaning demokratiyaga o'tish davri katta qiziqish uyg'otayotgani va doimiy munozaralar mavzusi ekanligiga shubha yo'q. Mamlakatning o'ziga xos bo'lgan tuzumini o'zgartirish jarayoni o'tmishni qayta ko'rib chiqishni va uni ommaviy axborot vositalari orqali talqin qilishni talab qiladi, ayniqsa, o'tmish hozirgi kunga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan bir vaqtda. Mazkur hodisaga siyosiy saylovlarni misol keltirishimiz mumkin. Bunday saylovlarda o'tish davrining ideallashtirish siyosati ko'zga tashlanadi.

Qayd etish lozimki, bu jarayonda yirik tarixiy jarayonlar, jumladan, fuqarolik urushi (Guerra Civil Española: 1936-yil 17-iyuldan 1939-yil 1-aprelga qadar davom etgan) hamda demokratiyaga o'tish davri (Transición Española: 1975-yil 20-noyabrda ispan davlati rahbari Fransisko Frankoning o'limi bilan boshlangan) ham muhim rol o'ynagan. Zero, urush hamda demokratiyaga o'tish davri gazeta matnlarining mavzulari, undagi leksik birliklar, matndagi ohangga kuchli ta'sir etgan. Siyosiy o'zgarish, so'z erkinligining kuchayib borishi, mustaqil matbuotning paydo bo'lishi turfa xil janrlar hamda uslubiy shakllarning rivojlanishiga olib kelgan.

Ispaniya OAVlari auditoriya uchun yangi va dolzarb axborotni uzatishda uning rang-barangligiga va tilning ekspressivligiga alohida e'tibor qaratadi. Ushbu xilma-xillik va janrning o'ziga xosligi ispan ommaviy axborot vositalarini ispan madaniyatining noyob va muhim qismiga aylantiradi.

Iqtisodiy omillarning ta'siri haqida gapirganda mamlakatning ichki islohotlari, shuningdek, dunyoda sodir bo'layotgan globallashuvni e'tiborga olish kerak bo'ladi. Mazkur jarayonlar tahririyatlarning axborot siyosatiga ta'sir o'tkazib, ularni tezkorlikni talab etadigan hamda raqobat kuchli bo'lgan media bozoriga moslashishga majbur qildi.

Ijtimoiy omillar esa gazetalarda inson huquqlari, madaniy va ma'naviy an'analar, xalqaro hamjihatlik kabi mavzularda yozish majburiyatini yuzaga keltirdi hamda jurnalistlar matnining ritorik strategiyalarida aks etdi.

Shu o'rinda lisoniy omilni esdan chiqarmaslik lozim. Ispan tili boy leksik qatlam, keng uslubiy imkoniyatlar va turfa xildagi hududiy variantlilikka ega bo'lsa-da, keng auditoriya vakillariga birdek tushunarli bo'lgan publitsistik gazeta matnlarini yaratishni talab etdi hamda jurnalistlar tomonidan ana shunday "oltin o'rtalik" topildi ham. Bu orqali Ispaniyaning o'ziga xos bo'lgan gazeta-publitsistik uslubi yuzaga keldi.

Bunday o'zgarishlar, ayniqsa, zamonaviy globallashuv sharoitida keskin tus olmoqda. Shu sababdan ham, milliy jurnalistika maktablarining xilma-xilligini o'rganish muhim ilmiy vazifadir. Jurnalistik ijodning yagona shakllarining tarqalishi sharoitida dunyoning turli mintaqalari, shu jumladan, Ispaniya va Lotin Amerikasi davlatlari o'rtasidagi jurnalistikaning janr tizimlaridagi farqlarni o'rganish, ayniqsa, dolzarb bo'lib qolmoqda. Bunday tadqiqot ispan bosma ommaviy axborot vositalarining janr xususiyatlarini tahlilini amalga oshiradi.

TADQIQOT METODLARI

Maqola natijalari hamda xulosalariga quyidagi usullar yordamida erishilgan: tavsifiy (ispan mediamakonida matbuot turlariga tavsif beriladi), tahlil va sintez (soʻnggi yarim asr mobaynida Ispaniya va ispan tilli mamlakatlar olimlarining ilmiy qarashlari tahlil qilinadi hamda janrlar tizimi ichki jihatdan ajratib koʻrsatiladi), tarixiy (ispan matbuotining XVII–XXI asrlar oraligʻidagi rivoji bosqichma-bosqich koʻrib chiqiladi hamda janrlarning shakllanishi tarixiy omillar bilan bogʻlanadi), qiyosiy (turli olimlar: R.Y. Mesa, R.Salaverría, Grijelmo va b. tasniflari taqqoslanadi, turli jurnalistika maktablari yondashuvlari qiyoslanadi), tasniflash (janrlar guruhlariga ajratiladi: axboriy, tahliliy, fikr).

Tarixiy usul

Ispaniya matbuoti tarixiy jihatdan Yevropa axborot makonida muhim oʻrin tutadi. Bu mamlakatda bosma nashrlar shakllanish jarayoni uzoq asrlar davomida rivojlanib, media sohasida muayyan anʼanalarni bir nuqtada jamlaydi. Hozirda Ispaniya matbuotida anʼanaviy gazeta, jurnal, internet-medialar hamda boshqa turdagi axborot kanallari faoliyat yuritib, mazkur ekotizimda turli janrlar rivojlanib bormoqda. Bu janrlar xabardorlik, tanqid, tahlil, axborotni jarangdor yetkazish kabi murakkab vazifalarni bajarib, oʻquvchilar auditoriyasining ehtiyojlarini qondirib keladi. Ispan ommaviy axborot vositalarida jurnalistika janrlari ham tarixiy, ham zamonaviy jihatdan qiziqarli tadqiqot mavzuidir. Zero, ushbu janrlar milliy anʼana, siyosiy muhit, madaniy bagʻrikenglik, maʼlum bir gazeta yoki jurnalning tahririyat siyosatidan kelib chiqadigan xususiyatlar bilan belgilanadi.

Ispaniyada gazeta chop etish ilk marotaba XVII–XVIII asrlarda kuzatila boshlangan. Ilk matbuot nashrlari koʻproq rasmiy axborotni yetkazish maqsadida qoliplashgan boʻlsa, XIX asrdan boshlab yangiliklarni keng jamoatchilikka yetkazuvchi mustaqil gazetalar vujudga keldi. XX asrda Fransisko Franko diktaturasi davrida matbuot sezilarli senzura ostida boʻlsa-da, 1975-yildan keyingi demokratik islohotlar gazetalarda turli janrlarning erkin rivojlanishi uchun zamin yaratdi. Bu davrda muharrirlar va jurnalistlar axborotni turli qiyofada yetkazish, tanqidiy pozitsiya, tahliliy yaqinlashuvlarga urgʻu qaratish imkoniyatiga ega boʻldilar.

Tavsifiy usul

Ispaniya davriy matbuoti oʻziga xos xususiyatlari va uslubi bilan ajralib turadigan turli xil gazeta va jurnallarga ega. Yaʼni, “rasmiy matbuot”, “sariq matbuot” hamda “bulvar matbuoti” orasida milliy va madaniy xususiyatlarga ega leksik birliklardan foydalanishda sezilarli farq mavjuddir. Ispan tilida matbuotning ommaboplikni maqsad qilgan turlariga “periódico sensacionalista”, “revistas de corazón” va “literatura de kiosko” deb aytiladi, undan tashqari, “periodismo de tinta roja” va “amarillismo” terminlari ham matbuotga nisbatan qoʻllaniladi.

Ziyoli qatlam adresatiga yoʻnaltirilgan yuqori sifatli matbuot oʻquvchini tahliliy yondashuvga ega axborot bilan taʼminlashni maqsad qiladi. Yaʼni, bunday turdagi nashrlar nafaqat sensatsiya, koʻngil ochishga, balki axborot yetkazish va insonlarning bilimini oshirishga xizmat qiladi. Bunday gazeta va jurnallarning noshirlari odatda

jurnalistikaning yuqori standartlariga rioya qilishadi va aniqlik, xolislik va chuqur tahlilga e'tibor qaratishadi.

Biroq, rangli jurnallarning o'qilishi garchi yengil va qiziq bo'lsa-da, ma'lum bir turmush tarzini targ'ib qilishga va maqsadli auditoriyaning aqliy va moddiy imkoniyatlariga mos kelishga intiladi. Ular o'z o'quvchilarining jinsi, yoshi va ijtimoiy mavqeini hisobga olgan holda ma'lum bir bozor segmentini, maqsadli auditoriyani aniq nishonga olishadi. Rangli matbuotdagi moda, go'zallik, san'at, sayohat va hayotning boshqa sohalariga oid materiallarni o'z auditoriyasi uchun qiziqarli va dolzarb bo'lishi mumkin.

Boshqa tomondan, "sariq" matbuot nashrlari materiallari shov-shuvga moyil bo'lib, odatda keng auditoriyaga qaratilgan. Shunga qaramay, ular ko'pincha tahliliy yondashuvga egaday ko'rinishi, auditoriyaning ishonchini qozonish uchun rasmiy matbuot nashrlariga xos so'zlar va uslublardan foydalanishga harakat qilishi mumkin. Yuqori sifatli rasmiy matbuot uslubi va usullariga taqlid qilish ommaning e'tiborni jalb qilish va o'quvchilar sonini ko'paytirish uchun qo'llanishi ham mumkin.

Umuman olganda, yuqori sifatli matbuot, ya'ni rasmiy nashrlar va "sariq" matbuot nashrlari o'z o'quvchilarini xabardor qilish va ularning vaqtini chog'otkazishi uchun turli xil yondashuvlarga ega. Birinchisi tahlil va obyektivlikka intilsa, ikkinchisi mish-mishlarga va ko'proq auditoriyani qamrab olishga qaratilgan. Biroq yuqori sifatli matbuot nashrlarining ba'zi belgilari tahliliy yondashuv va ishonchlilik ko'rinishini berish uchun "sariq" matbuot nashrlarida ham bo'lishi mumkin.

Agar "rasmiy", ya'ni "yuqori sifatli" matbuotda mualliflar tilning adabiy me'yoriga rioya qilishga harakat qilishsa, "sariq", "bulvar" matbuotida diqqatni jalb qilish maqsadida turli xildagi me'yorga to'g'ri kelmaydigan lisoniy vositalardan foydalaniladi. Maqsad esa aniq: o'quvchiga yaqinroq bo'lish va material mutolaasini qulaylashtirishdir. Bunday nashrlarda avvalo so'zlashuv nutqining manbalari, neologizmlar, o'zlashma so'zlar (asosan ingliz tilidan) keng qo'llaniladi va mazkur holat reklama nashrlari, fotosuratlar ostidagi sarlavhalar va materiallar sarlavhalar uchun xosdir. Ko'rib turganimizdek, ispan matbuotidagi janr xususiyatlarini ularning matbuotning qaysi turiga mansubligidan kelib chiqib shakllanadi. Biz quyida ispan gazeta janrlarining shakllanishi, taraqqiyoti va zamonaviy holatini ispan olimlarining ilmiy ishlariga tayangan holda ko'rib chiqamiz.

Tasnifiy va qiyosiy usullar

XXI asrda dunyo matbuoti kabi Ispaniya matbuoti ham raqamli maydonga ko'chib o'tdi. Bu jarayon mediadagi janrlar evolyutsiyasiga olib keldi. "Elektron gazetalarda video, audio, infografika, giperhavolalardan keng foydalanish imkoni janrlar qolipini kengaytiradi" [Clavería, 2010; 15]. Masalan, onlayn hisobotlar jurnalistikasining interfaol shakli sifatida yuzaga chiqdi, shuningdek, intervyu janrida video yoki podkastlar orqali axborot yetkazish usullari paydo bo'ldi. Shu bilan birga, mazkur jarayon janrlar orasidagi chegaralarning biroz buzilishiga ham sabab bo'lmoqda. Bu o'z o'rnida raqamli muhitda yangilik o'z-o'zidan sharh yoki hisobotga xos xususiyatlar bilan boyishi mumkinligini namoyon qilmoqda.

Ispan tadqiqotchisi R.Salaverria raqamli media sharoitida jurnalistika janrlarining chegaralari yanada noaniq bo‘lib bo‘lib borayotgani, biroq bu jarayon auditoriyani axborotni interfaol, keng ko‘lamli, rang-barang shaklda qabul qilish imkoniyati bilan ta‘minlashini aytib o‘tadi [Salaverría, 2005; 31]. Shuning bilan birga olim, raqamli sharoitda janrlar “konvergensiya” jarayonini boshdan kechirayotganini, turli axborot formalari bir-biri bilan uyg‘unlashib ketayotganini ta‘kidlaydi [Salaverría, 2005; 33]. Demak, zamonaviy talablar janrlarning ma‘lum bir qolipdan chiqib, ko‘p funksionallikaga erishishini rag‘batlantirmoqda.

Ispaniya davriy matbuotining janrlari M.Vivaldi [Vivaldi, 1972; 494], [Vivaldi, 1973; 362], A.Martinez [Martinez, 1993; 295] A. Grijelmo [Grijelmo, 2002; 608], N.González Ruíz [González Ruíz, 1956; 226] kabi olimlar ilmiy ishlarida batafsil ko‘rib chiqilgan. Mazkur tadqiqotlar natijasida ispan tilidagi jurnalistik janrlarning shakllanishi, unda milliy o‘ziga xoslikni aks ettiradigan quyidagi asosiy omillar bilan belgilandi.

Birinchi omil: Ispaniya jurnalistikasi xronika va adabiy an‘analarining ta‘siri bilan bog‘liq. XVIII-XIX asrlarda ispan tilidagi davriy nashrlarning o‘ziga xos janr tizimining rivojlanishi, shuningdek, asrlar davomida namoyon bo‘lgan fransuz jurnalistika maktabining ta‘siri bilan bog‘liq edi. Zero, o‘sha vaqtlarda Fransiya nafaqat ispanlar ziyoli qatlami, balki Lotin Amerikasi mamlakatlarining ko‘plab aholisi uchun ham madaniy diqqatga sazovor joy hisoblangan.

Ikkinchi omil: ispan tilidagi jurnalistikaning zamonaviy janr majmuasi bilan bog‘liq bo‘lib, u ancha keyinroq, XX asrda shakllangan. Yigirmanchi asrning boshlarida Ispaniya va Lotin Amerikasiga Angliya-Amerika “dalillash” jurnalistika maktabi ta‘sir ko‘rsatdi. Bu ta‘sir, ayniqsa, reportaj va intervyu janrlarining tarqalishida sezilarli bo‘y ko‘rsatib, 1870-1914-yillarda AQSH va Angliyaning davriy gazeta nashrlarida o‘zini namoyon qildi.

Uchinchi omil: Birinchi Jahon urushidan keyin jurnalistikaning chuqur tijoriylashuvi tufayli ushbu maktabning ta‘siri yanada sezilarli bo‘la boshladi. Bu ispan tilidagi davriy nashrlarning zamonaviy janr tizimining o‘ziga xosligini aniqlagan yana bir omildir.

Tahlil va sintez usullari

A.Martinez fikriga ko‘ra, “gazeta matnlari muallif shaxsiga minimal ta‘sir ko‘rsatadi va shaxsga bog‘lanmaganligi bilan ajralib turadi. Bu xususiyat uslubiy xilma-xillikni yo‘qotishdan ko‘ra ko‘proq vaqt va makonni tejash zarurati bilan bog‘liq. Muallif iqtisod tamoyilini eng aniq va ifodaviy vositalarini izlash bilan mohirona birlashtirishi kerak, chunki gazeta axborot manbai bo‘lib, mafkuraviy va targ‘ibot g‘oyalarini olib boradi” [Martinez, 1993; 269], shuningdek, ko‘ngilochar xususiyati bilan ham jamiyatning keng auditoriyasiga qaratilgandir.

J.Garcia Aviles “mualliflar, muharrirlar va auditoriya o‘rtasidagi munosabatlar, axborotni to‘g‘ri, tezkor va xolis yetkazishda janrlarning xususiyatlarini asosiy mezon qilib oladi” [García Avilés, 2015; 87], deya ta‘kidlaydi. X.Dubskiy tadqiqotida esa gazeta-jurnalistik uslubning maxsus taqsimoti mavjud emas, chunki unga amaliy xarakterga ega bo‘lgan professional funksional-uslubiy quyi tizimning bir qismi

sifatida qaraladi [Dubskiy, 1970; 80]. Shunga qaramay, muallif gazeta tiliga xos bo'lgan xarakterli leksik-grammatik va uslubiy xususiyatlarga ishora qiladi.

N.Firsovaning fikricha, “gazeta janrlari har doim ham “sof shaklda” belgilanmaydi”. Ularning chegaralari o'zgaruvchan va harakatchan bo'lib, muayyan gazeta janrining maqsadli yozilishi, materialning mazmuni va muallif yondashuvi ularning har birida lisoniy birliklar va uslubiy vositalarni tanlashni taqozo qiladi [Firsova, 1988; 7]. A.Korochenskiy “Ispan tilidagi davriy nashrlarning janr tizimining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida”gi maqolasida [Korochenskiy, 2015; 2] ispan tilidagi davriy nashrlarining janr tizimini o'rganib, uning o'ziga xosligini aniqlashga hissa qo'shadi. Muallif Ispaniya va Lotin Amerikasining ispan tilida so'zlashadigan mamlakatlari matbuotining janr majmuasida boshqa davlatlarning davriy nashrlarida o'xshash komplekslarga ega bo'lgan o'ziga xos belgilar va sezilarli farqlardan kelib chiqqanini ta'kidlaydi. Tadqiqotchi “ma'lum bir milliy jurnalistika maktabi doirasida shakllangan janr tizimining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlab, belgilangan janr shakllarini tasniflashning tarixiy kelib chiqishini o'rganish orqali ham, boshqa jurnalistik maktablar sharoitida shakllangan janr tizimlari bilan taqqoslash orqali ham amalga oshirilishi mumkin”, degan xulosaga keladi. Shuningdek, olim “...ispan tilidagi davriy nashrlarning tarixan shakllangan janrlar tizimi jurnalistik amaliyotda ham, ispan va Lotin Amerikasi tadqiqotchilarining davriy nashrlarning janrlari va ularning tasnifi haqidagi nazariy qarashlarida ham o'z aksini topgan. Ammo, bugungi kunga qadar ishlab chiqilgan ispan tilidagi davriy nashrlarning janrlarini tasniflash sxemalarining xilma-xilligi mavjud” [Korochenskiy, 2015; 4], deya ta'kidlaydi.

Kuba jurnalistlar uyushmasining sobiq raisi J.Garsia Luis tomonidan qo'llaniladigan janrlarni tasniflashga yondashuvlardan biri ingliz-amerika jurnalistika maktabi uchun an'anaviy bo'lgan janrlarning ikkilik bo'linishiga asoslangan [Garcia Luis, 1987; 150]. Biroq, u tasniflash g'oyasining tarafdori emasligini ta'kidlaydi. Ya'ni, Ispaniya va Lotin Amerikasi mamlakatlari olimlari ispan tilidagi davriy nashrlarning janrlarini tasniflashga urinayotganda har bir janr guruhiga xos bo'lgan umumiy vazifalarni hisobga olishadi. Asosiy e'tibor yangiliklar ma'lumotlarini uzatish, shuningdek, fikrlarni talqin qilish va ifodalash vazifalariga qaratilgan.

Jurnalistikaning “lotin modeli”da ko'proq an'anaviy uch qismli tasnif bo'linishi qo'llaniladi, ya'ni janrlar davriy matbuot nashrlarida janrlar uch guruhga: axboriy janrlar (*géneros informativos*), tahliliy janrlar (*géneros interpretativos*) va fikr janrlari (*géneros de opinión*)ga ajraladi [Yanes Mesa, 2004; 293]. Yuqoridagi uch guruhni M.Rodríguez Betancourt ispan tilidagi jurnalistikaning “katta makro janrlari” sifatida ta'riflaydi [Rodríguez Betancourt, 2004; 321]. R.Yanes Mesa ham yuqoridagi olimlarning nuqtayi nazariga mos ravishda, Ispaniya matbuotidan farqli o'laroq, jurnalistikaning “lotin modeli” uchun janrlar guruhining uchga bo'linishi an'anaviy hisoblashini qayd etadi [Yanes Mesa, 2004; 20]. Bular: axboriy janrlar (*géneros informativos*), tahliliy janrlar (*géneros interpretativos*) hamda fikr janrlari (*géneros de opinión*).

Ispaniya matbuotida sport tadbirlari, ijtimoiy-madaniy tadbirlar va reklamalarga

katta e'tibor berilishini hisobga olsak, ispan tilidagi jurnalistika janr tizimining milliy o'ziga xosligini gazeta va jurnal janrlarining asosiy guruhlarining boshqa tasniflarida ham ko'rish mumkin. Jumladan, S. Bernál va L. Chillon janrlarning mazmuni va uslub xususiyatlariga ko'ra ikkita asosiy guruhga bo'linishini to'g'ri deb bilishadi [Bernál, Chillon, 1985; 310]. Ya'ni, yangiliklar jurnalistikasi janrlari va badiiy jurnalistika (mual. Publitsistika) janrlari.

A.Grijelmo nuqtayi nazariga ko'ra, Ispaniya davriy matbuotining janrlarga bo'linishi jurnalist yoki gazeta matni muallifining yozma materiallarga shaxsiy jalb etilish darajasiga bog'liq [Grijelmo, 2002; 30]. Ya'ni, axborot janrlarining sof shaklda tabaqalanishi mavjud. Jumladan, axboriy janrlarga yangiliklar, muallifning fikri qatnashmagan qisqa, obyektiv intervyu, turli xildagi axboriy hisobotlar, arxiv hujjatlari, qisqa reportaj kiradi.

Ikkinchi guruh fikr va axborot qatnashgan janr bo'lib, unda ma'lumot muallifning shaxsiy fikri va talqini bilan boyitiladi. Bunday matnlarga xronika, jurnalistning taassurotlari, munosabati hisobga olinadigan intervyu, tahliliy reportaj, maqola va sharhlar kiradi.

Eng so'nggi guruh esa fikr janriga tegishli bo'lib, unda jurnalist munosabati, muharrir minbari, fikrga tayanilgan sharhlar, esselar yoziladi.

X.Gargurevich Amerika qit'asining ispan tilidagi davriy nashrlarida 12 janrni guruhlarga ajratmasdan "axboriy eslatma (la nota informativa); intervyu (la entrevista); xronika (la crónica); reportaj (el reportaje); – grafika (gráficos); rukn (la columna); maqola (el artículo); guvohlik (el testimonio); taqriz (la reseña); tanqid (la crítica); bahs, munozara (la polémica yoki el debate); kampaniya (la campaña yoki la cruzada)" tarzida sanab chiqqan bo'lsa [Gargurévich, 1982; 178], F.Retamar quyidagi janrlar o'z versiyasi tarzida sanab o'tadi [Retamar, 1981; 17]: "ijtimoiy-siyosiy esse (el ensayo sociopolítico); tahliliy maqola (el artículo de fondo); tanqid (la crítica); biografik ocherk – "etopeya" (la etopea); guvohlik (el testimonio)". Uning fikricha, "guvohlik" janri "rukn" janriga yaqin, ammo undan muallifning o'zi tasvirlagan voqealarda to'liq ishtirok etishi bilan farq qiladi. Ya'ni, unda muallif sodir bo'layotgan voqealarning bevosita ishtirokchisi va guvohidir. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari janri sifatida nutq, hisobot (el discurso) – og'zaki jurnalistika janri bo'lib, nutq to'liq (yoki uning batafsil taqdimoti) bosma nashrda chop etilgan hollardagina o'quvchilarga jurnalistik murojaat shakli sifatida qaraladi), maktub (la carta) – epistolyar versiyasida jurnalistika asari sifatida qaraladi) hamda xronika (la crónica)ni sanab o'tadi.

LotinAmerikasining bir qator olimlari quyidagi janrlarni ham qayd etishgan [González Longoria, 1999; 270; Bernál & Chillon, 1985; 310]: *la biografía* – biografik ocherk; *el bosquejo* – qisqa ocherk; *el comentario* – izoh; *la revista* – kuzatuv; *la reseña*, *la crítica de arte y literatura* – taqriz; *el folletín* – felyeton; *el enfilete (entrefilete)* – galyego tilidan olingan mazkur termin qisqa istehzoli, satirik yoki kulgili izohni bildiradi.

Kubalik olim E.Telleria Toca ham janrlarni sanab o'tishda ularni guruhga ajratmaydi [Telleria Toca, 1986; 302]. Uningcha, jurnalistik janrlar quyidagilardan

iboratdir: (1) axboriy eslatma (kubalik muallifning versiyasida axborot – información, yangiliklar – la noticia deb ataladi); (2) reportaj; (3) intervyu; (4) xronika; (5) maqola; (6) tahririyat maqolasi; (7) taqriz.

Olim janrlarni belgilagandan so‘ng alohida tarzda “felyeton”ni ham belgilab ketadi. Muallif yaratgan lug‘atda felyeton deganda roman yoki boshqa keng qamrovli asarning ketma-ketlikda nashr etib kelingan qismi tushunilgan [Telleria Toca, 1986; 135]. 1987-yilda yaratilgan mazkur lug‘atda “felyeton” jurnalistik janr sifatida kiritilgan bo‘lsa-da, bugungi kunga kelib mazkur janr mutaxassislar tomonidan ilmiy izlanishlarda jurnalistik janr deb tan olinish holatlari kuzatilmaydi.

G.Martin Vivaldi davriy nashrlarning janr tizimini tavsiflashda xronikani eslatib o‘tadi. Uning tasnifidan yangiliklar, reportaj, intervyu, tanqid, maqola joy olgan bo‘lib, mazkur janrlar boshqa olimlar tomonidan ham e’tirof etilgan edi. Shu bilan birga, G. Martin Vivaldi tasnifidan “katta reportaj”, sharh va sarlavhalar ham o‘rin olgan [Martín Vivaldi, 1987; 600]. “Katta reportaj” ko‘pchilik mualliflar tomonidan mustaqil janr sifatida tan olinmagan yoki ularning asarlarida shunchaki tilga olinmagan. Sarlavhalarni esa jurnalistik janrlar qatoriga kiritish to‘g‘ri bo‘lmaydi.

Ispan va Lotin Amerikasi mualliflari ba‘zan o‘zlarining tasniflariga gazeta va jurnallar tarkibiga kiradigan, ammo qat’iy jurnalistik janrlar hisoblanmaydigan guruhlarini kiritadilar. Masalan, H.Serrano [Serrano, 1997; 197] yangilik va fikr janrlari qatorida ko‘ngilochar materiallar: munajjimlar bashorati, komikslar, multfilmlar, krossvordlar, boshqotirmalar, san’at asarlarini ham jurnalistikaga bog‘laydi.

NATIJALAR

Yuqorida keltirilgan ilmiy qarashlar natijasida ko‘rinib turibdiki, ispan tilidagi davriy nashrlarning janrlarini guruhlariga ajratilgan tasniflashda quyidagi yondashuvlar ustunlik qiladi [Korochenskiy, 2011; 197]:

a) jurnalistikaning “lotin modeli” uchun an’anaviy bo‘lgan janrlarning uch qismli bo‘linishi ko‘pincha barcha janrlar uchta blokka bo‘linganda qo‘llaniladi: axboriy; tahliliy; fikr janrlari;

b) ba‘zan ingliz-amerika jurnalistika maktabi uchun an’anaviy bo‘lgan davriy nashrlar janrlarining ikkilik bo‘linishi ham qo‘llaniladi. Bunda butun janr majmuasi ikkita katta tasnif guruhiga bo‘lingan: yangiliklar janrlari hamda fikr janrlari;

d) ispan tilli mamlakatlarda janrlar mazmuni va uslub xususiyatlariga qarab ikkita asosiy guruhga bo‘lish keng tarqalgan: yangiliklar jurnalistikasi janrlari va adabiy jurnalistika janrlari.

Yuqorida aytib o‘tilgan tasnif bo‘linmalarining hech biri o‘zbek jurnalistikasi va jurnalistik fanida ustun bo‘lgan uch guruh, ya’ni davriy janrlarining an’anaviy taqsimlanishi: axboriy, tahliliy, badiiy-publitsistikaga to‘g‘ri kelmaydi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, davriy nashrlar janrlari quyidagi vazifalarni, ya’ni xabarlarini auditoriyaga tezkor yetkazish; uni voqeaga u yoki bu hissiy munosabatda bo‘lishiga olib kelish, ma’lum bir fikrning shakllanishiga ta’sir qilish, uni harakatga undash, biron bir fakt, harakat, voqeaga qiziqtirishga qaratilganligi bilan belgilanadi.

Ispaniya davriy matbuotining janr xususiyatlari uning mazmuni, maqsad va vazifalariga muvofiq rivojlandi.

Ispan tilida nashr etiladigan matbuotga bag'ishlangan ishlarni tadqiq qilish natijasida R.Y. Mesa quyidagi janr turlari tasnifini ilgari suradi: yangilik; intervyu; reportaj; vaziyatli va tahliliy jurnalistika; hujjatli va rasmiy materiallar; ko'ngilochar materiallar; ma'lumotnomalar va reklama matnlari [Yanes Mesa, 2004; 20]. Mazkur janrlarning har biri ispan gazetxonlariga ma'lumot berishda muhim rol o'ynaydi.

R.Peñaranda janrlarni tasniflashni yanada kengaytirib, to'rt guruhni ajratib ko'rsatadi [Peñaranda, 2000; 186]. Ularga:

- axboriy (mazkur janrlar guruhining asosiy vazifasi – sodir bo'layotgan yangiliklarni muallifning fikrlarini ifoda etishdan ozod bo'lgan, ya'ni muallif aralashuvisiz bayon qilish. Ushbu guruhga muallif yangiliklar (*la noticia*), xronika (*la crónica*), intervyu (*la entrevista*) va lavha (*el perfil*)ni kiritadi);

- fikr janrlari (mazkur janr dalillarni yetkazish bilan emas, fikrlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Fikrlar muallifning qadriyatlarini, g'oyalari va his-tuyg'ularini faktlarga tayanmasdan yetkazishga xizmat qiladi. Bu guruh o'z ichiga tahririyat maqolasi (*el editorial*), xronika (*la columna*), fikrga asoslangan maqola (*el artículo de opinión*), fikrga asoslangan karikatura (*la caricatura de opinión*), izoh (*el comentario*), taqriz (*la crítica*) va xat (*la carta*)ni qamrab oladi);

- tahliliy janrlar (*géneros interpretativos*) guruhi (ushbu guruh janrlari axboriy va fikr janrlari o'rtasida bo'lib, tamomila subyektiv fikrlarni taqdim etishdan qochadi. Tanlangan mavzu bo'yicha katta hajmdagi ma'lumotlarni ko'rib chiqadi, qarama-qarshi bo'lgan fikrlar va dalillarni taqqoslaydi, shu bilan birga o'quvchiga taklif qilingan dalillarni tahlil etish orqali tushunishga yordam beradi. Bu janr guruhi reportaj (*el reportaje*) (Bu o'rinda tahliliy reportaj nazarda tutiladi. Mual) va tahliliy maqola (*el análisis*)ni qamrab oladi);

- ko'ngilochar janrlar (*géneros de entretenimiento*) guruhi (bu guruh qamrab olgan janrlar o'quvchilarning hordiq olishlari va kayfiyatlarini ko'tarish uchun mo'ljallangan. Bu janrning funksional maqsadi, boshqa janrlardan farqli o'laroq, dalillarni ilgari surish va ularni baholashga emas, balki o'yin-kulgi, dam olish samarasiga erishishdir. Olim mazkur guruhga komikslar, krossvordlar, munajjimlar bashorati, o'yinlar, shuningdek, muayyan voqealar yoki belgilar bilan bog'liq bo'lmagan multfilmlarni kiritadi) [Peñaranda, 2000: 188] kabilar kiritiladi. Gazeta matni, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, milliy va madaniy ma'lumotlar manbai bo'lganligi sababli uning mazmuni janridan qat'iy nazar turlicha bo'ladi.

MUNOZARA

O'z vaqtida mashhur lotin yozuvchisi G.G. Markes “Jurnalistika nafaqat yangi grammatikaga, balki yangi pedagogika hamda yangi kasblarga ham arziydi” [Sokolova, 2018; 86], degan edi. Bugunga kelib esa, ommaviy axborot vositalarida shunday maqomga erishib, matnning yangi turlarini shakllantirishda muallifning pozitsiyasini ifodalash usullari janr shakllantiruvchi xususiyatga aylanadi. Zamonaviy

texnologiyalar, globallashiv ta'siri natijasida yangi gibril janrlar vujudga kelib, janrlar orasidagi farqlar yaqqol ko'zga tashlanmay qo'ydi. Ye.Vyrovseva qayd etganidek, "dalillarni tanlashda nafaqat ularning haqqoniyliqi, balki ta'sirchanliqi ham muhim ahamiyat kasb eta boshladi" [Vyrovseva, 2017; 47]. Aynan mana shu ta'sirchanlik sababli auditoriya bilan muloqot qilish imkoniyatlari kengaydi. Bu esa gazeta janrlarida yaqqol aks eta boshladi. Shu sababdan, biz ushbu maqolamizda janrlarning keskin o'zgarishi, gibrilashuvi, shakl emas, balki jurnalist aralashuviga ko'ra tasniflanayogan ispan matbuoti janrlari, jumladan, Ispaniya rasmiy gazetalarining axboriy, tahliliy va fikr janrdagi matnlarini tahlilga tortamiz.

Axboriy janrlar Ispaniya davriy matbuotining asosiy janri hisoblanadi. U hozirgi voqealar, yangiliklar va hisobotlar haqida aniq ma'lumotlarni taqdim etadi. Maqola esa voqealarni chuqurroq tahlil va talqin qilishni taqozo etadi, ma'lum bir mavzu bo'yicha muallifning fikri va nuqtayi nazarini ham taqdim etadi.

Sodir bo'layotgan voqea-hodisalar haqidagi ma'lumotni iloji boricha tezroq yetkazishga qaratilgan yangiliklar matni ko'p sonli fe'llardan foydalanilishi ko'payishi bilan ajralib turadi

Intervyu va suhbatlar ispan matbuotida mashhur janr hisoblanadi. Ular jurnalistlarga taniqli shaxslar, siyosatchilar, mutaxassislar va boshqa e'tiborli shaxslarga savol berish imkonini yaratadi. Intervyular suhbatdoshlarning fikr va qarashlarini ochib beradi, shuningdek, ko'rib chiqilayotgan mavzuga chuqurroq yondashishga yo'l ochib beradi.

Reportaj – bu shunday janrki, unda jurnalistlar o'quvchilarga voqea joyini tasvirlash orqali o'z shaxsiy tajribalarini yetkazib, o'sha yerdagi vaziyatni batafsil tasvirlab berishadi. Reportaj tamomila obyektiv, ya'ni muallif fikri hamda ishtirokisiz jarayonni to'liq aks ettirishi bilan axboriy yoki muallifning subyektiv fikri hamda munosabati qo'shilgan holda tahliliy ham bo'lishi mumkin. Reportajda o'quvchilarni jalb qilish maqsadida kishilar va voqealar tarixi bilan bog'liq ma'lumotlar, tavsiflar ham beriladi. reportaj muqarrar ravishda muallifning shaxsiy idrokini aks ettiradi. Jurnalist qaysi tafsilotlarni kiritishni, qaysi voqealarni ta'kidlashni va ma'lumotni qanday taqdim etishni o'zi tanlaydi.

Ispan tilidagi jurnalistik matnlarning janr tizimining o'ziga xosligi xronika janrida to'liq ifodalangan. J.Contesning qayd etishicha, ispan tilidagi jurnalistikaning janr shakllari kontekstida qo'llaniladigan "xronika" terminining konseptual mazmuni alohida tadqiqot obyektidir [Contes, 2012; 3]. Bu, xususan, mahalliy jurnalistika nazariyasida va ispan tilida so'zlashuvchi tadqiqotchilarning ispan va Lotin Amerikasi davriy nashrlari hamda jurnalistikasining janr tuzilishini tahlil qiluvchi nazariy va uslubiy ishlarida ushbu tushunchani talqin qilishda sezilarli farqlar mavjudligi bilan bog'liq [Yanes Mesa, 2006; 9]. Shu bilan birga, jurnalistikada gazeta xronikasi aniq axborot janrlari guruhiga kiradi; ko'plab ispan tilidagi mualliflar uni eng boy va eng murakkab yuqori tartibli janrlardan biri sifatida tavsiflaydilar.

S.Gonsales Longorianing ta'kidlashicha, "Ispaniyada, shuningdek, bir qator ispan tilli mamlakatlar jurnalistik amaliyotida "xronika" termini ko'pincha

jurnalistikaning deyarli har qanday janriga nisbatan qo‘llaniladi” [González Longoria, 1999; 92]. Xuddi shunday semantik kengayish Meksikada ham kuzatiladi, bu yerda har qanday nisbatan batafsil matn odatda maqola sifatida tasniflanadi. Jumladan, J.Ortega xronika va reportaj janrlari o‘rtasidagi o‘xshashlik hamda farqlarga e‘tibor qaratar ekan, ularni shunday tasvirlaydi: “bu janrlar aka-uka bo‘lmasa ham, bir-biriga jiyandir” [Ortega, 1984; 74], deya olim mazkur janrlarning asosiy xususiyatlarini batafsil qiyosiy tahlil qilish natijasida ular orasidagi farqlar aniq ko‘rinishini, bu har bir janrning o‘ziga xos xususiyatlarini ochiqlashini qayd etadi.

Vaziyatli va tahliliy jurnalistika janri yangilikka xos xususiyatlar va tahlilni bir nuqtada jamlagan sharh, korrespondensiya, izohlarni o‘z ichiga oladi. Sharhlar jurnalistlarga dolzarb voqealar to‘g‘risida o‘z fikrlarini bildirishga imkon beradi. Korrespondensiya va izoh esa ayrim mavzularni batafsil baholash va tahlil qilishni talab etadi.

Pamflet va felyeton siyosiy, ijtimoiy va madaniy hodisalarni sharhlash va tanqid qilish uchun hazil, kinoya va kesatiqudan foydalanadigan satirik janrlardir. Unda axborot uzatishning qiziqarli shaklidan foydalaniladi va ko‘pincha fikrlar erkin ifoda etiladi.

Hujjatli va rasmiy janr qonunlar, qarorlar, kompaniya boshqaruvi hisobotlari va boshqa rasmiy hujjatlardan parchalarni o‘z ichiga oladi. Hujjatli materiallar qonunchilik va tashkiliy jarayonlar to‘g‘risida ma‘lumot beradi, rasmiy materiallar esa turli muassasa va tashkilotlarning rasmiy bayonotlarini aks ettiradi.

Ko‘ngilochar nashrlar krossvord, aforizm, komiks kabi materiallarni qamrab oladi va ular o‘quvchilar tomonidan yengil o‘qiladi hamda hordiq chiqarish imkoniyatini beradi. Ular gazetxonning jiddiy mavzulardan tanaffus qilishiga imkon berib, ko‘proq kulgili va o‘yinga aylantirilgan materiallardan zavqlanish uchun sharoit yaratadi.

Ma‘lumot materiallariga xulosa, ma‘lumotnoma va e‘lon kiradi. Ular o‘quvchilarga turli voqea, sana bilan bog‘liq dalillar yoki kutilayotgan voqealar haqida qisqacha va aniq ma‘lumotni beradi. Reklama nashrlari mahsulot, xizmat yoki tadbirlarni targ‘ib qiluvchi tijorat reklama va materiallarini aks ettiradi. Ular tijorat xarakteriga ega va noshirlar uchun muhim daromad manbai hisoblanadi.

Aytish joizki, Ispaniya davriy matbuotining janr xususiyatlari xilma-xil bo‘lib, jamiyat va madaniyatning turli jabhalarini qamrab oladi. Yangilik va reportajlardan tortib sharh-u reklama matnlariga qadar har bir janr axborot uzatish yoki ko‘ngilochar vazifasida o‘z o‘rniga ega. Ushbu janrlarni tushunish va baholash o‘quvchilarga Ispaniya davriy nashrlarining xilma-xilligi va qiymatini yaxshiroq tushunishga yordam beradi (1-, 2- va 3-jadvallarga qarang):

1-jadval

R.López Cubino va B. López Sobrino ishlab chiqqan janrlar tasnifi

[López Cubino, López Sobrino, 2012; 78]

Axboriy	Tahliliy	Fikr
axboriy maqola qaydnoma qisqa xabar sharh hisobot xabar	reportaj intervyu xronika	tahririyat maqolasi muallif rukni luqma tanqid gazetxonlar xati hazil-mutoyiba

2-jadval

C.Rodríguez Sánchez tomonidan ishlab chiqilgan janrlar tasnifi

[Rodríguez Sánchez, 2012; 4]

Axboriy	Fikr	Tahliliy
axboriy maqola qaydnoma (<i>muallif</i> . Jurnalistik hisobot) qisqa xabar	tahririyat maqolasi muallif rukni tanqidiy maqola maqola izoh	reportaj intervyu xronika

3-jadval

Ispan matbuotidagi yirik jurnalistik janrlar guruhlar

J.Muñoz González [Muñoz González, 2005; 34]	J.Martines Albertos [Martínez Albertos, 1993; 98]
dalillar yoki voqea-hodisalar fikir	axboriy janrlar tahliliy janrlar fikir badiiy-publitsistik janrlar

Koʻrib turganimizdek, ispan jurnalistik janrlarni tizimlashtirish masalasi J.Martines Albertos tomonidan ilgari surilgan tasnif asosida alohida qiziqish uygʻotadi. U tomonidan berilgan “jurnalistik janr” tushunchasi taʼrifi ushbu muammoni tadqiq qilish jarayonida C. Rodriguez Sanches tomonidan qoʻllangan boʻlib, J.Martines Albertos ishlab chiqqan tasnif esa keyinchalik ushbu muallifning shaxsiy tipologiyasini yaratishda metodologik asos boʻlib xizmat qilgan.

Shunday qilib, ispan matbuoti janr xususiyatlari tarixiy anʼanalar, siyosiy islohotlar, madaniy muhit va texnologik taraqqiyot bilan uzviy bogʻliq ravishda shakllanib, rivojlanib bormoqda. Janrlarning tarkibiy qismlari, tili, uslubi hamda ulardagi axborot koʻrinishi Ispaniyada alohida nazariy asoslarga ega. J.Diaz Noci taʼkidlaganidek, har bir janr, eng avvalo, axborot manbai, axborotni yetkazish usuli hamda maqsad asosida shakllanadi [Díaz Noci, 2003; 43]. Masalan, yangilikda xolislik ustuvor boʻlsa, hisobotda jurnalist shaxsiy taassurotlari bilan dalillarni boyitadi, tahliliy maqolada esa koʻp manbaali yondashuv, raqamlar, ekspert fikrlari muhim ahamiyat kasb etadi. Janrlar axborotni yetkazishda maʼlum bir qolip, uslub va maqsad bilan harakat qiladi.

Jurnalistika tili esa turli xillik bilan ajralib turadi va turli janr shakllarida

qo'llanganda o'ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi. Gazeta va publitsistik uslubning keng mavzuli va janr sohalarida yangiliklar rukni alohida o'rin tutadi. Uning asosiy vazifasi mamlakat yoki dunyoda sodir bo'layotgan real voqealar haqida ishonchli faktlarni tez va aniq yetkazishdir. S.Seryogina ta'kidlaganidek, bu yerda ma'lumot beruvchi komponent birinchi o'ringa chiqadi, chunki yangiliklar bo'limining asosiy maqsadi o'quvchini mavjud voqea-hodisalar bilan iloji boricha tezroq va aniqroq tanishtirish bo'lib, uni tahlil qilish, sharhlashni nazarda tutmaydi [Seryogina, 2015; 7]. Bunda dalillarni to'g'ri tanlash, ularni mantiqiy tartibga solish, neytral uslubdan foydalanish va xolislik tamoyillariga rioya qilish muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalarini raqamlashtirishning zamonaviy sharoitida axborot materiallari ko'pincha multimediasiy belgilar, giperhavolalar va interaktiv taqdimot shakllari bilan birga keladi, bu esa ushbu janrdagi jurnalistik matnning ma'lumotli va qulayligini yanada oshiradi.

XULOSA

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, Ispaniyadagi kabi davriy matbuot janrlari nafaqat hajmi, mazmuni, gazeta sahifasidagi o'rni va boshqa rasmiy belgilari bilan, balki qanday vazifani bajarishga mo'ljallanganligi bilan ham farqlanadi. Jumladan, bu kabi farqlar quyidagi omillarga asoslangan holda yuzaga keladi: o'quvchini xabardor qilish, unda voqeaga u yoki bu hissiy munosabatni uyg'otish, ma'lum bir fikrning shakllanishiga ta'sir qilish, uni harakatga undash, biror fakt, harakat yoki narsaga qiziqtirish vazifasi. Asosiy kommunikativ vazifadagi tafovut, shuningdek, aholining turli qatlamlariga yo'naltirilganlik til vositalaridan foydalanishda sezilarli farqlarni keltirib chiqaradi. Zero, har qanday gazeta janri kommunikativ vazifani bajarishga qaratilganligini unutmaslik lozim.

Ispan matbuoti uchun xos bo'lgan an'anaviy janrlar raqamli davrda yangi ko'rinishlar, interfaollik, multimediasiylik bilan boyib bormoqda. Bu esa ispan gazeta tilida turli madaniy, ijtimoiy va siyosiy tajribalarning uyg'unlashuviga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bernal, S., & Chillon, L. A. (1985). *Periodismo informativo de creación*. Barcelona: Mitre.
2. Brossa, J. (2012). The newspaper column. Retrieved from <http://complemento-agente.blogspot.ru/2012/12/la-columna-periodistica.html>.
3. Díaz Noci, J. (2003). *La evolución de los géneros periodísticos en la prensa española*. Madrid: Síntesis.
4. Dubsky, J. (1970). *Introducción a la estilística de la lengua*. Santiago de Cuba: Abril.
5. Fernández Retamar, R. (1981). Las letras fieras de José Martí. In J. Martí, *Letras fieras*. La Habana: Letras Cubanas.
6. Firsova, N. M. (1988). *Gazetno-publitsisticheskiy stil. Funktsionalniye tipy rechi sovremennoy ispanskogo yazyka*. Moskva: UDN.
7. García Avilés, J. A. (2015). *Innovación y rutinas periodísticas en los medios digitales*. Pamplona: Eunsa.
8. García Luis, J. (1987). *Géneros de opinión*. Prague: OIP.
9. Gargurevich, J. (1982). *Géneros periodísticos*. Quito: Belén.
10. González Longoria, S. L. (1999). *El ejercicio del periodismo*. México: Trillas.
11. González Ruíz, N. (1956). *Obra selecta: Biografía, teatro, artículos y reportajes*. Madrid: Labor.

12. Grijelmo, A. (2002). *El estilo del periodista*. Madrid: Taurus.
13. Clavería Lizana, C. (2010). *España en Europa*. Madrid: Real Academia Española.
14. Korochenskiy, A. P. (2011). Istoriko-kulturniye istoki klassifikatsionnogo raznoobraziya janrovoy sistemy ispanoyazychnoy periodiki. *Nauchniye Vedomosti BelGU. Seriya Gumanitarniye Nauki*, 18(113), 11. Minsk: Aviaart.
15. Korochenskiy, A. P. (2015). K voprosu o spetsifike janrovoy sistemy ispanoyazychnoy periodiki. *Sotsialniye i Gummanitarniye Issledovaniya*, 2. Retrieved from k-voprosu-o-spetsifike-zhanrovoy-sistemy-ispansoyazychnoy-periodiki.pdf.
16. López Cubino, R., & López Sobrino, B. (2012). *La diagramación del periódico. Proyecto Mediascopio Prensa. La lectura de la prensa escrita en el aula* (Vol. 7). Madrid: Edelsa.
17. Martín Vivaldi, G. (1987). *Curso de redacción: Teoría y práctica de la composición y del estilo*. La Habana: Apuntes.
18. Martínez Albertos, J. L. (1993). *Curso general de redacción periodística: Lenguaje, estilos y géneros periodísticos en prensa, radio, televisión y cine*. Madrid: Paraninfo.
19. Muñoz González, J. J. (2005). Tendencias del lenguaje del periodismo en el siglo XXI. *Revista Comunicación y Pluralismo de la Universidad de La Rioja*. Retrieved from https://www.unirioja.es/ensaya/archivos/ediciones%20anteriores/textos_%20premiados/periodismo.pdf.
20. Ortega, J. (1984). *Géneros periodísticos*. La Habana: UPEC.
21. Peñaranda, R. U. (2000). Géneros periodísticos: ¿Qué son y para qué sirven? *Sala de Prensa*, 26, 2.
22. Rodríguez Betancourt, M. (2004). Géneros periodísticos: Para arropar su hibridez. *Estudios sobre el Mensaje Periodístico*, 10, 319–328.
23. Rodríguez Sánchez, S. (2012). La prensa, un recurso para el aula. Análisis de la prensa. Géneros periodísticos. Retrieved March 3, 2024, from http://www.ite.educacion.es/formacion/materiales/42/cd/ml_3/index.html.
24. Salaverría, R. (2005). *Redacción periodística en internet: Género, estilo y tecnología*. Barcelona: Ariel.
25. Serrano, H. I. (1997). *Técnicas de enseñanza en periodismo*. México: Trillas.
26. Seryogina, S. Ye. (2015). Osobennosti funktsionirovaniya semanticheskikh klassov glagolov v publitsisticheskoy tekste (na materiale ispanskogo yazyka). Retrieved from <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-funktsionirovaniya-semanticheskikh-klassov-glagolov-v-publitsisticheskoy-tekste-na-materiale-ispanskogo-yazyka/viewer>.
27. Sokolova, V. M. (2018). Magiya povestvovatelnoy jurnalistiki Gabriela Garsia Markesa. *Vestnik Moskovskogo Universiteta. Seriya 9: Filologiya*, 1.
28. Tellería Toca, E. (1986). *Diccionario periodístico*. Santiago de Cuba: Abril.
29. Vivaldi, M. G. (1972). *Curso de redacción*. Madrid: Paraninfo.
30. Vivaldi, M. G. (1973). *Géneros periodísticos*. Madrid: Paraninfo.
31. Vyrovsova, Ye. V. (2017). Kreolizatsiya publitsisticheskogo teksta kak vyrazeniye pozitsii avtora. *Vestnik Chelyabinskogo Gosudarstvennogo Universiteta*, 12(408).
32. Yanes Mesa, R. (2004). *Géneros periodísticos y géneros anexos*. Madrid: Fragua.
33. Yanes Mesa, R. (2006). Chronic, a genre of literary journalism midway between information and interpretation. *Speculum*. Retrieved from <https://pendientedemigracion.ucm.es/info/especulo/numero32/cronica.html>.

REFERENCES

34. Bernal, S., & Chillón, L. A. (1985). *Creative informational journalism*. Barcelona: Mitre.
35. Brossa, J. (2012). *The newspaper column*. Retrieved from <http://complemento-agente.blogspot.ru/2012/12/la-columna-periodistica.html>.
36. Clavería Lizana, C. (2010). *Spain in Europe*. Madrid: Royal Spanish Academy.
37. Díaz Noci, J. (2003). *The evolution of journalistic genres in the Spanish press*. Madrid: Síntesis.

38. Dubsky, J. (1970). *Introduction to language stylistics*. Santiago de Cuba: Abril.
39. Fernández Retamar, R. (1981). Fierce letters of José Martí. In J. Martí, *Fierce letters*. Havana: Letras Cubanas.
40. Firsova, N. M. (1988). *Newspaper and publicistic style: Functional speech types of the modern Spanish language* (Textbook). Moscow: Peoples' Friendship University Press.
41. García Avilés, J. A. (2015). *Innovation and journalistic routines in digital media*. Pamplona: Eunsas.
42. García Luis, J. (1987). *Opinion genres*. Prague: OIP.
43. Gargurevich, J. (1982). *Journalistic genres*. Quito: Belén.
44. González Longoria, S. L. (1999). *The practice of journalism*. Mexico City: Trillas.
45. González Ruíz, N. (1956). *Selected works: Biography, drama, articles and reports*. Madrid: Labor.
46. Grijelmo, A. (2002). *The journalist's style*. Madrid: Taurus.
47. Korochenskiy, A. P. (2011). Historical and cultural origins of the classification diversity of the genre system of Spanish-language periodicals. *Belgorod State University Scientific Bulletin: Humanities Series*, 18(113), 11.
48. Korochenskiy, A. P. (2015). *On the specificity of the genre system of Spanish-language periodicals. Social and Humanitarian Research*, 2. Retrieved from k-voprosu-o-spetsifike-zhanrovoy-sistemy-iskanoyazychnoy-periodiki.pdf.
49. López Cubino, R., & López Sobrino, B. (2012). *Newspaper layout: The Mediascopio Press Project. Reading the printed press in the classroom* (Vol. 7). Madrid: Edelsa.
50. Martín Vivaldi, G. (1987). *Writing course: Theory and practice of composition and style*. Havana: Apuntes.
51. Martínez Albertos, J. L. (1993). *General course in journalistic writing: Language, styles and journalistic genres in the press, radio, television and cinema*. Madrid: Paraninfo.
52. Muñoz González, J. J. (2005). *Trends in the language of journalism in the twenty-first century. Communication and Pluralism Review of the University of La Rioja*. Retrieved from https://www.unirioja.es/ensaya/archivos/ediciones%20anteriores/textos_%20premiados/periodismo.pdf.
53. Ortega, J. (1984). *Journalistic genres*. Havana: UPEC.
54. Peñaranda, R. U. (2000). *Journalistic genres: What are they and what are they used for? Press Room*, 26, 2.
55. Rodríguez Betancourt, M. (2004). *Journalistic genres: Embracing their hybridity. Studies on Journalistic Messages*, 10, 319–328.
56. Rodríguez Sánchez, S. (2012). *The press as a classroom resource: Press analysis and journalistic genres*. Retrieved from http://www.ite.educacion.es/formacion/materiales/42/cd/m1_3/index.html.
57. Salaverría, R. (2005). *Journalistic writing on the Internet: Genre, style and technology*. Barcelona: Ariel.
58. Serrano, H. I. (1997). *Teaching techniques in journalism*. Mexico City: Trillas.
59. Seryogina, S. Ye. (2015). *Features of the functioning of semantic classes of verbs in journalistic texts: Based on Spanish-language material*. Retrieved from <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-funktsionirovaniya-semanticheskikh-klassov-glagolov-v-publitsisticheskoy-tekste-na-materiale-iskanskogo-yazyka/viewer>.
60. Sokolova, V. M. (2018). *The magic of narrative journalism in the works of Gabriel García Márquez. Moscow University Bulletin. Series 9: Philology*, 1.
61. Telleria Toca, E. (1986). *Dictionary of journalism*. Santiago de Cuba: Abril.
62. Vivaldi, M. G. (1972). *Writing course*. Madrid: Paraninfo.
63. Vivaldi, M. G. (1973). *Journalistic genres*. Madrid: Paraninfo.
64. Vyrovsova, Ye. V. (2017). *Creolization of journalistic texts as an expression of the author's position. Bulletin of Chelyabinsk State University*, 12(408).
65. Yanes Mesa, R. (2004). *Journalistic genres and related genres*. Madrid: Fragua.

66. Yanes Mesa, R. (2006). *Chronicle: A genre of literary journalism midway between information and interpretation. Speculum*. Retrieved from <https://pendientedemigracion.ucm.es/info/especulo/numero32/cronica.html>.